

**“SO‘ZNING TARKIBIY QISMLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA
INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH**



A. M. Shofqorov

ChDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

F. J. Murodova

ChDPI magistranti

Zamonaviy ta’limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta’lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo’llaniladigan an’anaviy kategoriylar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriylar ma’lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha “rejissyor” bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. Darsning samarali natija berishi o‘qituvchidan jiddiy mas’uliyatni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Bugungi kun o‘quvchisining o‘z qarashlari, o‘z fikri va talablari bor. Shuning uchun darslarni tashkil qilish, uni to‘g‘ri taqsimlash o‘qituvchi oldida turgan dolzarb vazifadir. O‘qituvchi bir necha yangicha ta’lim usullarini, innovatsion ta’lim metodlarini yaxshi bilishi va dars jarayonida qo’llay olishi kerak.

Har bir dars, mavzu, o‘quv fanini o‘zlashtirishda ta’lim texnologiyalaridan mosini tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa, interfaol ta’lim metodlari mavzularni o‘zlashtirishda samarali usullar hisoblanadi. Bugungi kunda bir qancha zamonaviy ta’lim metodlari keng qo’llanib kelinmoqda. Xususan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “VENN diagrammasi”, “BBB”, “FSMU” kabi ta’lim texnologiyalari samarali ta’lim texnologiyalari hisoblanadi. Shuningdek, “Qiyoslash metodi”, “Davra metodi”, “6x6x6”, “Teskari test” kabi metodlarning dars samaradorligini ta’minlashda o‘ziga xos o‘rni bor.

Biz ushbu maqolada umumiyoq o‘rta ta’lim maktablari 6-sinf “Ona tili” fanida “So‘zning tarkibiy qismlari” mavzusining o‘rganilishida interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish yuzasidan fikr yuritmoqchimiz.

Bilamizki, so‘zning tarkibiy qismlari tilshunoslikning “Morfemika” bo‘limida o’rgatiladi. Bu termin yunoncha “morfem” – ma’noli qism degan ma’noni

ifodalaydi. Demak, bu bo‘limda so‘zning ma’noli qismlari haqida fikr yuritiladi. So‘zning ma’noli qismlari deganda asos va qo’shimchalar tushuniladi. Asos (yetakchi morfema) – so‘zning eng kichik, boshqa ma’noli qismlarga ajralmaydigan qismi. Qo’shimcha (ko’makchi morfema) – asosga qo’shilib, yangi ma’no hosil qiladigan, so‘zning shakliga ta’sir etadigan, so’zlar orasida o’zaro bog’liqlikni hosil qiladigan vositalardir. So‘zni morfem jihatdan tahlil qilish mas’uliyatli vazifa, albatta. Chunki yetakchi morfemalardan o‘sib chiqqan so‘zlarni anglash, ko’makchi morfemalarning vazifasini tushuntirish, so‘zlarni morfemalarga to‘g’ri ajratish kabilarni 6-sinf o‘quvchisiga tushuntirish o’qituvchidan tajriba bilan birgalikda katta bilimni ham talab qiladi. Metodikada darsni tashkil qilishda, eng avvalo, o‘quvchining yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Shundagina o’tilayotgan darsda natijaga erishish mumkin. Shuning uchun ushbu mavzuni o’tishda turli interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.


“So‘zning tarkibiy qismlari” mavzusini o’tishda bir necha usullardan foydalanish mumkin. “Domino” usulidan foydalanish ushbu mazuni o’zlashtirishda juda qo’l keladi. Masalan, “Domino” o‘yinida toshlarning shakllariga qarab harakat qilinadi. Biz esa so‘zni morfem tahlil qilishda shunday shakldan foydalanishni tavsiya etamiz.

Misol uchun, *terimchilarimizdan* so‘zini olaylik. Bundagi ma’noli qismlarni domino toshlari kabi quyidagi bo‘laklarga ajratamiz.

Ter	-im	-chi	-lar	-imiz	-dan.
Asos	So‘z yasovchi	So‘z yasovchi	Lug’. Shakl yasovchi	Sint. sh. yasovchi	Sint. sh. yasovchi

Bu usulda so‘zlarni tahlil qilish o’quvchidan qiziqish bilar birga so‘zlarni to‘g’ri tuzish, qo’shimchalardan to‘g’ri foydalana olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, “So‘zlarning tarkibiy qismlari” mavzusini “Klaster” usuli yordamida mustahkamlash mumkin. Bu usul o‘quvchilarning mavzu haqidagi tushunchalarini kengaytirishga, so‘zlarni tahlil qilishda o‘z bilimlariga ega bo‘lishga, qo’shimchalarni turlarga to‘g’ri ajratishga va ularning so‘z tuzish malakasini oshirishga imkon beradi. Masalan,



Mavzuning yuqoridagi usullarda olib borilishi darsning samarali o'tishi va qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'z larining fikrini erkinbayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatadi. Tushuncha va olgan bilimlarini amalda qo'llash malakasini ham shakllantiradi.

REFERENCES

1. Mahmudov., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzahmedov A. Ona tili (umumiyo'rta ta'lim makkablarining 6-sinfi uchun darslik). –T., Ma'naviyat, 2017.
2. Matjonov S., Bakiyeva H., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi - Toshkent, 2021. 468 b.
3. Mavlanova.R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi vatarixi. - T., "Fan va texnologiya", 2010. 276 bet.
4. Muxamedov O'. X., Usmonboyeva M.H., Rustamov S.S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. – Toshkent, 2016 312 b.
5. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. –T., TDPU, 2014.